Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320809

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

KORXONALARNING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINI ANIQLASH

Ismoilova Gulshodaxon Kamoliddinovna
Farg‘ona Politexnika Instituti
gismoilova765@gmail.com

Annotatsiya korporativ boshqaruvning asosiy boshlang‘ich nuqtalaridan biri rahbariyat va aksiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishdir. Bu esa korxonalar faoliyatining samaradorligini pasaytirishi va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi ishonchni susaytirishi mumkin. Mazkur maqolada korporativ boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishda menejerlarning mas’uliyatini oshirish va manfaatlar muvozanatini ta’minlashga qaratilgan tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar korporativ boshqaruv, signal nazariyasi, agentlik nazariyasi, ichki va tashqi mexanizm, menejerlar, aksiyadorlar

Korporativ boshqaruv nazariyasida mulkchilik va nazoratning ajralishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda boshqaruv prinsiplariga tayaniladi. Ushbu prinsiplar menejerlar va aktsiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash uchun innovatsion boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Dastlab mehnat bozoridagi axborot assimetriyasi muammolarini hal qilish uchun ishlab chiqilgan signal nazariyasi keyinchalik korporativ boshqaruv sohasiga ham joriy etilgan. Ushbu nazariya menejerlar va aktsiyadorlar o‘rtasidagi axborot assimetriyasini aniqlash va uni bartaraf etishga qaratilgan choralarning asosini tashkil qiladi. Signal nazariyasiga ko‘ra, agar aktsiyadorlar kompaniya faoliyati haqida etarli ma’lumotga ega bo‘lmasa, menejerlar ushbu axborot assimetriyasidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishi mumkin, bu esa ma’naviy xavflarni yuzaga keltiradi. Shu sababli kompaniyalar o‘z faoliyatlari haqidagi ma’lumotlarni oshkora va aniq tarzda manfaatdor tomonlarga yetkazishi lozim. Bu jarayon axborot assimetriyasini kamaytirib, menejerlar va aktsiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga yordam beradi.

Agentlik nazariyasiga ko‘ra, menejerlar va aktsiyadorlar manfaatlari mos kelmagan hollarda menejerlar o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishi, aktsiyadorlar manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishi va natijada agentlik xarajatlari oshishi mumkin. Ushbu xarajatlarni kamaytirish maqsadida turli boshqaruv qoidalari va tizimlari ishlab chiqilgan. Garanina va Kaikova[1] ta’kidlashicha, agentlik xarajatlarini boshqarishga ikki xil yondashuv qo‘llaniladi:

- **Ta’sirni tahlil qilish yondashuvi** – agentlik xarajatlari oqibatlarini o‘rganish va ularning kompaniya faoliyatiga ta’sirini baholash.
- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri mexanizmlar yondashuvi** – menejerlar va aktsiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar mosligini ta’minlovchi tizimlarni ishlab chiqish.

Korporativ boshqaruv mexanizmlari kompaniya faoliyatining barqarorligini ta’minlash va manfaatdor tomonlarga foyda keltirish uchun ichki va tashqi ikki asosiy tarmoqda ishlab chiqiladi. Ichki mexanizmlar kompaniya ichida rahbariyat va aksiyadorlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun ishlatilsa, tashqi mexanizmlar kompaniyaga tashqaridan ta’sir qiladi va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlari uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlash va kompaniyaning umumiy qiymatini oshirish uchun tizimli tarzda integratsiyalangan bo‘lishi zarur. Ushbu 1-jadval korporativ boshqaruv mexanizmlarining ikki asosiy yo‘nalishini tahlil qilishga imkon beradi va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiradi:

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ismoilova Gulshodaxon Kamoliddinovna (2024). Korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda korporativ boshqaruv mexanizmlarini aniqlash. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320809
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

1-jadval
Korporativ boshqaruv mexanizmlarining ikki asosiy yo‘nalishlari

Korporativ boshqaruv mexanizmlari	Ichki mexanizmlar	Tashqi mexanizmlar
Aniqlash	Kompaniya ichida boshqaruv tizimlarini tartibga soluvchi mexanizmlar	Kompaniyaga tashqaridan ta’sir qiluvchi tartib va omillar
Asosiy maqsad	Rahbariyat va aksiyadorlar o‘rtasida manfaatlarni uyg‘unlashtirish	Kompaniyaning tashqi muhit bilan uyg‘un faoliyat olib borishini ta’minlash
Asosiy elementlari	1. Direktorlar kengashi 2. Mustaqil ichki audit 3. Hisobot liniyalari va ish faoliyatini o‘lchash tizimlari 4. Kompensatsiya tizimlari	1. Huquqiy tizim 2. Sanoat qoidalari 3. Bozor nazorati 4. Tashqi manfaatdor tomonlarning ta’siri
Agentlik muammolarini hal qilish	Agentlik muammolarini hal qilishga qaratilgan qoidalar va siyosatlar	Agentlik muammolariga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi
Moslashuvchanligi	Ichki tartibga solishni amalga oshirish orqali boshqariladi	Tashqi muhit talablariga moslashish orqali boshqariladi
Qaramlik darajasi	Kompaniyaning o‘z faoliyatiga bog‘liq	Bozor, huquqiy tizim va boshqa tashqi sharoitlarga bog‘liq
Misollar	➢ Direktorlar kengashining mustaqilligi ➢ Rahbariyatning samara-dorlikka asoslangan mukofot tizimlari	➢ Tashqi qonunchilik va tartib-qoidalar ➢ Bozor reaktsiyalari

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining yana bir muhim elementlaridan biri institutsional investorlarning faol ishtirokidir. Ushbu investorlar kompaniya boshqaruvini nazorat qilish va unga ta’sir ko‘rsatish orqali boshqaruv ustidan kuchli nazorat mexanizmini yaratadilar. Ular, shuningdek, kompaniyadagi ulushlarini sotish orqali chiqib ketish tahdidi bilan boshqaruvni intizomga solish vositasi sifatida foydalanishlari mumkin.

Institutsional investorlar, odatda, professional moliyaviy menejerlar, maslahatchilar va huquqshunoslar xizmatidan foydalangan holda boshqaruv jarayonlariga ta’sir o‘tkazadilar. Ular umumiy yig‘ilishlarda ovoz berish huquqiga ega bo‘lishadi va ba’zan direktorlar kengashiga a’zo sifatida saylanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ularga boshqaruvni aktsiyadorlarning manfaatlariga muvofiq qarorlar qabul qilishga yo‘naltirish imkonini beradi. Shuningdek, institutsional investorlarning o‘z ulushlarini sotish orqali kompaniyani tark etish tahdidi boshqaruvni qo‘shimcha bosim ostiga qo‘yadi. Bu holat kompaniyaning bozorda salbiy qabul qilinishiga sabab bo‘lishi bilan birga, boshqa manfaatdor guruhlar tomonidan kompaniyaning sotib olinishi ehtimolini oshiradi. Bunday xavf kompaniyaning hozirgi rahbariyati uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ammo institutsional investorlarning boshqaruvga faol aralashuv yondashuvi

ba’zan "erkin chavandozlar" muammosini keltirib chiqaradi. Ya’ni, boshqaruvga aralashish uchun barcha xarajatlar institutsional investorlarga yuklanadi, biroq bu harakatning foydalari boshqa aktsiyadorlar tomonidan ham qo‘shimcha xarajatlarsiz qo‘lga kiritiladi. Bu esa institutsional investorlarning harakatlariga bo‘lgan motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Korporativ boshqaruvning bu yo‘nalishi kompaniya rahbariyati va aktsiyadorlar o‘rtasidagi mas’uliyatni yanada muvozanatlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, boshqaruv qarorlarini aktsiyadorlar manfaatlariga moslashtirishni ta’minlaydi.[2] Biroq, maqsad kompaniyaning aksiyadorlari taklifni bergan kompaniya aksiyadorlariga nisbatan ko‘proq foyda ko‘radi, deb hisoblash mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda bu foyda saqlanib qolishi borasida tadqiqot natijalari aniq emas.

Xulosa

Korporativ boshqaruv nazariyasi kompaniyalar ichidagi mulkchilik va nazoratning ajralishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan. Umuman olganda, korporativ boshqaruv mexanizmlari menejerlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash, kompaniya qiymatini oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, agentlik muammolari va bozor tuzilishidagi farqlarni hal qilish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alp, A., & Kılıç, S. (2014). Kurumsal yönetim nasıl yönetilmeli. Doğan Kitap, İstanbul.
2. Becht, M., Bolton, P., & Röell, A. (2003). Corporate governance and control. İçinde Handbook of the Economics of Finance (Vol. 1, pp. 1- 109): Elsevier.
3. Garanina, T., & Kaikova, E. (2016). Corporate governance mechanisms and agency costs: Cross-country analysis. Corporate Governance: The International Journal of Business in Society, 16(2), 347-360. doi:10.1108/cg-04-2015-0043
4. https://dx.doi.org/10.15863/TAS
5. Ilyosov, A. A. and etc. (2020). Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 113-117.
6. Ismoilova G.K. АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ИЛМИЙ Журнали 2024, 4(01), 303-310.
7. Schmidt, C., & Fahlenbrach, R. (2017). Do exogenous changes in passive institutional ownership affect corporate governance and firm value? Journal of Financial Economics, 124(2), 285-306. doi:10.1016/ j.jfineco.2017.01.005
8. Тютык О. В. Корпоративный менеджмент. Рынок корпоративного контроля: слияния и поглощения компаний: учеб. пособие; Перм. гос. нац. исслед. ун-т. – Пермь, 2019. 121 с.

QORAQOLPOG‘ISTONDA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVATLASH QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALAR KIRITISH (ECHKICHILIK SOHASINI RIVOJLANISH IMKONIYATLARI)

Kalenderov Azat Qurbanalievich
Samarqand davlad veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali